



2-bet
**BOLANING
TILI CHIQQDI**




4-bet
**KO'GHANGIZDAN
MEHMON
O'TDI...**



7-bet
**DADA,
KETIB
QOLMAYSIZMI?**

Mehmonimiz -
Umarali
NORMATOV



9-bet
**TANQID -
SARALAMOQ
DEMAK**

www.tongyulduzi.uz

TONG

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

yulduzi

2010-yil
4-oktabr
N:40
(66789)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**XAYRLI,
SAVOBLI
ISHLARDA
BIR-BIRINGIZDAN
O'ZISHGA
SHOSHILING**



Qo'ng'iroq

NAVOIYLIKLAR BIRINCHI

Respublikamizning eng kenja viloyati sanalmish Navoiyda 364 ta umumta'lim maktablari bo'lib, ularda bugungi kunda 131.595 nafar o'g'il-qiz tahsil olmoqda. Kuni kecha viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Mehriniso Pardayeva bilan bog'lanib, ustozni kasb bayramlari bilan qutladik.

- Viloyatimizdagi umumta'lim maktablari o'quvchilari sevimli gazeta va jurnallari «Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha» kabi nashrlarga obunani o'quv yilining dastlabki kunlaridanoq boshlab yuborishgan, - deydi boshqarma boshlig'i mamnuniyat bilan. - Zero, farzandlarimiz ma'naviyatini shakllantirmay turib, ularning kelajagiga umid qilib bo'lmaydi...

Mehriniso opaga sharafli va o'ta mas'uliyatli ishlarida omadlar tilab, ijodiy hamkorligimiz yana davom etadi, deya umid qilib qoldik.

FERUZA

**Qadrli ustozlar, o'quvchilar, Siz
sevimli nashringizga obuna
bo'ldingizmi?**

Nashr indeksi: 169



Suratlar muallifi: Fuzra MUHSINOVA

Shu kunlarda poytaxtimiz azim Toshkentda obodonlashtirish, ozodalik oyligi davom etmoqda. Sarvar degan bolakayning qo'liga supurgi olib, uylari oldini supurayotganini ko'rib, hamma quvondi.

– Ozoda! Ozoda! – deydi u ko'zlari porlab.

– Ozoda ismli opasi bormi? – so'raydi ayollardan biri unga zavqi kelib.

– Yo'q, opasi yo'q, o'g'limning o'zi ozodalikni yaxshi ko'radi, piyolasini o'n marta arttirmasa, choy ichmaydi.

Ayollar hayron qolishadi, lekin bu yaxshi holat: yangi avlod ozoda ostonadan yurt maydonlari, dalalari, kengliklari tomon ilk qadimini tashlar ekan, u yaxshilik vodiylariga, ezgulik bo'stonlariga kirib borib, biz orzu qilgan inson bo'lib yetishadi.

Sarvar bahona atrofga ko'z yugurtirib, dilimiz yashnadi: ostonamizdan to ishxonamiz-gacha, yurtning u chetidan-bu chetigacha ozodalik, go'zallik gullari ufurib tursa, qaysi birimiz bundan quvonmaymiz?!

Azim poytaxtda boshlangan katta hashar nafaqat ko'zimizni, hatto dilimizni ham quvontirib yubordi: kundankunga chiroy ochib borayotgan azim poytaxtni dunyoning eng toza shahriga aylantirsak, bu yaxshiku! Boshqa tomoni, yashash joyimiz qanchalik ozoda, toza bo'lsa, dunyoda eng qimmatbaho sanalgan sog'lig'imizga ham shuncha foyda. Yo gapim noto'g'rimi, aziz bolalar?!

Sarvarning ilk o'rgangan so'zlari «Ota, ona, buvi, bobo, ozoda» bo'libdi. Bolaning tili chiqdi, deb hammamiz quvonamiz, lekin uning keyingi holati bilan unchalik ishimiz bo'lmaydi. So'z – qudratli dunyo. Bir so'z bilan dunyoga tinchlik, bir so'z bilan unga juda katta ozor yetkazish mumkin. Hazrat Navoiy bobongiz aytganidek, insonni hayvondan ajratib turgan narsa ham so'z. Shu bois, bugun kelajagi buyuk davlatning vorislarini tili ham go'zal va yoqimli bo'lishi darkor. Men bu bilan biz undoq-bundoq deb bo-



shingizni og'ritmoqchi emasman, ozodalik bahona tilimizga ham e'tibor qaratishni istayman. Qaysi kuni ko'chada ikki mashina to'qna-shib ketdi, voqeaga guvoh bo'lganlar rosa janjal, to'polon bo'lsa kerak, deb tosh qotishdi. Lekin mashina egalari bo'lgan akalaringiz kabinadan tushiboq bir-birlaridan kechirim so'radilar. Unisi: «Qo'rqmadingizmi, meni kechiring, ehtiyotsizlik qildim» desa, bunisi: «Uzr, aka, o'zingizga hech narsa qilmadimi, temir topiladi, to'g'rilyamiz», dedi qo'lini ko'ksiga qo'yib.

Uning yonida turgan kostyum-shim, qora galstuk taqqan bolakay: – Biznikini kecha chiroyli qilib bo'yashdi, borib ko'rsang, og'zing ochilib qoladi! – deya maqtandi. Bu gaplarda hech bir yomonlik yo'q, ammo ularga faqat maqtanib qolmasdan o'zlariga ham endi shu ozoda, chiroyli dahlizlarni ko'z qorachig'idek asrashlarini so'rashimiz kerak. O'rni kelganda aytish kerakki, so'zning salmog'ini saqlash o'zimizning vazifamiz. Aytaylik, maktab o'quvchisi haqida maqola tayyorlasak-da, uni falon viloyatning farzandi, deya ko'klarga ko'tarib yozsak, bu unchalik to'g'ri emas. Anvar ota-onasining erka farzandi, deyish mumkin, bu o'rinli, lekin «Yurt farzandi» degan nomga sazovor bo'lish uchun shaxs darajasiga ko'tarilish lozim, bu esa hammaga nasib etmaydigan unvon. Shu bois ham, xoh telexmubir, xoh boshqa bo'lsin, avvalo, aytadigan so'zini yetti o'lchab, so'ngra ishlatgani ma'qulroq.

Keyingi paytlarda, aziz bolalar, o'zlaringiz bilasiz, «yulduz» so'zini ko'p ishlatayapmiz. Qani,

BOLANING TILI CHIQQI

Avtobusda yonimda o'tirgan otaxon: «Mana buni haqiqiy odamgarchilik desa bo'ladi», deya suyundi. Biz ham suyundik va ishga yaxshi kayfiyat bilan keldik.

Mustaqillik bizga ko'p narsa beryapti, go'zal yurtimiz bizni ko'p siylayapti, biz ham shu ozod Vatanga, shu aziz yurtga munosib kishilar bo'lishimiz, o'zimizni o'zgartirishimiz kerak emasmi?! Qaysi kuni

o'zini ulug' sanagan uch-to'rttasining davrasida bo'ldik: ozgina qizib olishgach, bir-birlarini qochirib so'zlar bilan mazax qilayotgan bu kimsalardan ixlosim qaytdi. G'urur hammada bor, lekin «Men hammangdan zo'rman», deya birovlariga tosh otishdan yomoni yo'q, undan ko'ra, ezgulik, odamiylik, dunyo haqida gapirsak, davradagi yoshlar harqalay ma'naviy ozuqa olishadi. Ular shuni o'ylashdimikin?! «Mingni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr», deyдилar. Oramizda yashayotgan bunday kimsalar ko'ngilni xira qilishdan boshqa narsani bilishmaydi.

Kecha uydan chiqayotsam, ko'pqavatli uy yonida to'plangan uch-to'rt bolakay yana ozodalik haqida gapirib turishibdi.

– Bizni dahlizimiz eng go'zal, hammayoq chip-chiroyli, – dedi qoramtir sochlariga oq lenta taqqan qizcha.

o'zingiz ayting, kimlarni yulduz deyish mumkin? Albatta, el xizmatini qozongan, katta mehnat qilgan, bilimli, idrokli, samimiy, odobli hofizlarni «yulduz» desak yarashadi, lekin bir-ikkita sayoz ashula o'rganib olib, xirgoyi qilgan ikki dunyoda ham «yulduz» bo'lolmaydi. Demogchimizki, yoningizdagi bolakayning tili chiqmoqda, kim nima desin-u, siz bilan biz o'z ona tilimizning salmog'ini saqlaylik, bolakaylar ham sizlardan o'rganib, so'zlarning salmog'ini tushirib yuborishmasin!

«Qo'rqmadingizmi, meni kechiring, ehtiyotsizlik qildim»

Boshi o'rgan sonlarda

«G'azal degani bu –aa, ab, av... tarzda qo'fialanib aruz vaznida yozilgan she'r» demogchisizda?

– Yo'q. Aruzda vazn bilan qo'fiyaga talab qanchalik qat'iy bo'lmasin, shuning o'zi kifoya emas. Chunki ular baribir she'rning tashqi unsurlari. Bitik «g'azal» degan tabarruk nomga munosib bo'lishi uchun u yana bir muhim shartni qanoatlantirishi lozim: – g'azalning har

Abdulla A'ZAMOV

ARUZ

bir baytida kamida bitta badiiy yangilik, kamida bitta so'z sa'nati mavjud bo'lsin.

Agar vazn-u qo'fiyagina g'azalni g'azal qilganda, bu barmoqdagi nazmbozlik kabi juda jo'n yumush bo'lar edi. Zero, vazn texnikasini –u xoh barmoq bo'lsin, xoh aruz – egallagan odamga misralarni tizib tashlayverish qiyin emas. Lekin o'ylab ko'raylik: nima uchun Navoiy o'z g'azallarining «yetti bayt-u, to'qqiz bayt, o'n bir bayt-u o'n uch bayt» ekanligini alohida qoniqish bilan ta'kidlagan? Nima uchun «Xazoyin ul-maoniyy»ning har bir devoniga ko'plab qit'alar –

KITOB TAFAKKUR QANOTIDIR

Gazetaning o'tgan sonlaridan birida tengdoshimiz Shuhratning do'sti Bahromga yozgan maktubini barcha sinfdoshlar birgalikda o'qib chiqdik. Xatni o'qib bo'lgach, ustozimiz Ma'fura opa: – Sizning orangizda ham Bahromga o'xshash beparvo o'quvchilar bormi? – deya savol berib qoldilar.

ekan. Ikkimiz ham baravariga kulib yubordik.

To'g'ri, Bahrom kabi beparvo va loqayd bolalar oramizda yo'q emas. Lekin bunday o'quvchilarni Ma'fura opamiz turli usullar bilan yo'lga sola oladilar. Masalan, ustozimiz bizga bo'sh vaqtimizda badiiy kitob o'qishimizni maslahat beradilar. Va, albatta, haftada bir o'qigan adabiyotlarimiz ma'nosini qay darajada tushunganimizni gapirib berishimizni so'raydilar.

Yaqinda ustozimiz boshchiliklarida

Onasining iltimosini bajara olmagani qabida bir umr armonga aylanadi. Sizlar ham xato qilib, afsuslanib yurishni istamasangiz, asardan o'zingizga tegishli xulosa chiqaring. Ota-onangizning har bir aytgan so'zlarini vaqtida bajarib, ularning duosini olinglar.

Ustozimizning nasihatlarini doimo qulog'imiz ostida jaranglaydi. Bunday asarlarni o'qiganimizdan so'ng, nafaqat ota-onamizga, balki sinfdoshlar ham birimizga mehribon bo'lib qolamiz.

Darslarni yaxshi o'zlash-tira olmaydigan o'quvchilarga yordam beramiz.

Menimcha, ustozimiz bizni kitobga oshno qilib, loqaydlik va beparvolik kabi illatlardan uzoqlash-tiradilar. Shuning uchun ham bizning sinfda nafaqat qizlar, balki o'g'il bolalar ham faollikni qo'ldan bermaydilar.

O'ylaymizki, Shuhratning maktubidan

Aks sado



«SINFDOSHIM NEGA BEPARVO?»

maqolasini o'qib...

Bir zum sinfni sukunat qopladi. Men beixtiyor do'stim Azamat haqida o'ylay boshladim.

Biz ham xuddi Shuhrat yozganidek Azamat bilan maktabga birga boramiz, darslarimizni birgalikda tayyorlab, to'garaklarga ham birga qatnashamiz. Lekin shu paytgacha uning darslarga beparvo bo'lganini sezmadim. Shularni xayolimdan o'tkazib do'stinga qarasam, u ham menga qarab jilmayib o'tirgan

O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asarini o'qib chiqdik va birgalikda tahlil qildik. Barcha o'z fikrini aytib bo'lganidan so'ng, Ma'fura opa yakuniy xulosani sodda va lo'nda qilib tushuntirib berdilar:

– Asar bosh qahramoni onasini qanchalar yaxshi ko'rsa ham, kundalik tashvishlari tufayli volidasiga vaqt ajratolmaganidan keyinchalik ko'p afsuslanadi.

Bahrom o'ziga kerakli xulosani chiqarib olgan. Biz sinfdoshlar esa Bahromga bo'sh vaqtlarida o'ziga yoqqan to'garakka qatnab, badiiy kitob o'qishini maslahat bergan bo'lardik.

Abdusolih ABDUG'ANIYEV,
Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi
273-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi

Sahifani GULYUZ tayyorladi

«nihoyasiga yetmagan g'azallar» kiritilgan? Navoiydek so'z ustasiga ularni yetti baytli g'azal hajmiga yetkazish qiyin bo'lganmi? Aslo. Hoynahoy, «g'azal mulkining sultoni» shoirlarga saboq bo'lsin degandir: «G'azalni sun'iy tarzda, lekin so'z san'atiga xilof tarzda uzaytirgandan, qit'a tarzida qoldirgan ma'qul».

Nima uchun Bobur «birinchi g'azalimni yetti bayt bitdim, keyingi g'azallarni ham shu tartibda bitishga

BAHSI

qaror qildim» deb yozgan bo'lsa-da, devonida 5 va 6 baytli g'azallar ko'p? Gap shundaki, Bobur shoh bo'lsa ham, g'azalni hurmat qilgan. Zotan chin g'azalda, vazn va qofiya bekam-u ko'stligidan tashqari, har bir baytning o'z nuqtasi, o'qiganni qoyil qoldiradigan san'ati bo'lishi shart – shundagina u g'azaldan joy olishga munosib bo'ladi. Navoiy, Bobur kabi daho shoirlar uchun g'azalning sifat mezonini yana ham yuksakroq: har bir baytda biror badiiy yangilik, bir emas, ikki-uch va undan-da ziyod so'z san'ati bo'lishi talab etilgan!

Buning ibratli namunasi «Majolis un-nafois»da keltirilgan:

«Mirzobek – insoniyat va xush axloqlikda Xuroson va Samarqand mulkida yagona erdi. Tab' va fahm va otar-u tutarda (harb ishi va ov mahoratida –A.A) bu ikki mulk yigitlari orasida saromadi zamona (lider), bu nav' ta'riflardan mustag'niy (maqto'vni yoqirmas edi). Bu matla' aningdurkim:

Ko'zung ne balo qaro bo'luptur,

Kim jonga qaro balo bo'luptur,

zulqofiyatayndur va qofiyalari tardi akskim...

Navoiy «Menga farzand martabasida erdi» deb eslagan yigitning baytida uch san'atni qayd etmoqda:

1. Baytning qo'shqofiyaga egaligi, ya'ni ikkitadan so'z qofiyalangan. 2. Tardi aks san'ati birinchi misradagi **balo** va **qaro** so'zlari ikkinchi baytda o'rin almashib kelayotgani. 3. Tardi aks aynan qo'shqofiya tashkil etgan so'zlarda ro'y berayotgani.

Shuningdek, «ne balo» iborasidagi **balo**, «qaro balo» iborasidagi **qaro** so'zlari ko'chma ma'noda kelayotgani, «bo'luptur» so'zi ikki misrada ikki xil ma'noda ekanligi (birinchi misrada –«qora ko'zli bo'lib tug'ilibsan», ikkinchi misrada –«ko'zing aql-u hushdan ayiradigan, fitnakor bo'libdi») – bular ham san'at. Shuncha so'z san'ati aruz nuqtai ixcham – atigi 10 hijoli misralarda ifodalangan, bu –yuksak mahorat.

Navoiy yuqoridagi jumlaning shunday tugatdi: «...javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdur».

Bu jumlada Navoiyning buyukligi yana bir karra muhrlangan –ulug' shoir va yuksak martabali davlat arbobi «Men bunday bayt bitishga ojizman» deya yosh vafot etib ketgan yigitni alqaydi.

Hazrat bu bilan cheklanmaydi:

«Agarchi aning tiliga bu nav' abyot ko'p o'tar erdi, ammo hargiz parvo qilib bir yerda bitimas erdi. Bu matla'in faqir tugatib, aning yodgori devonda bitibmen. Hayf va yuz hayf va darig' va yuz ming darig'kim, hayot chashmasidin serob bo'lmadi va umri naqli mevasidin bar yemadi. Mazori Samarqand mahfuzasida... Makoni ravzai jannat va ruhig' a firdavsi a'loda makon bo'lsun!»

Navoiy bu iste'dodli, ayni paytda nihoyatda kamtar yigit baytini g'azalga yetkazib, «Badoyi' ul-bidoya» devoniga kiritgan. Shuning bilan cheklanmay hatto butun devonini uning xotirasiga bag'ishlagan.

G'azalning barcha baytida zulqofiyatayn va tardi aks san'atlari davom ettirilgan. Ammo Mirzobek baytidagi Navoiyga alohida zavq bag'ishlagan uchinchi san'at keyingi baytlarga xos emas. Buni shoirmoing o'z qayd etgani – uning o'z ijodiga nisbatan ham xolis va o'ta talabchanlik bilan yondashganidan dalolat.

(Davomi bor)



DUNYONI O'RGANAMIZ

Aziz bolajonlar, orangizda mashhur shaharlar, davlatlar haqida ko'proq ma'lumot olishga qiziqmaydiganlar topilmasa kerak-a? Bugun sizlarga ana shunday davlatlardan biri, ulkan salohiyatga ega bo'lgan Saudiya Arabistoni haqida ma'lumot bermoqchimiz.

Rasmiy nomi Saudiya Arabistoni Qirolligi deb nomlangan ushbu davlat Janubi-g'arbiy Osiyodagi Arabiston yarim orolida joylashgan. Poytaxti Ar-Riyod hisoblanib, hududi 2200000 km.ga teng. Davlat tili arab tili bo'lib, aholi shu tilda so'zlashadi. Pul birligi Saudiya riali deb qabul qilingan.

Bir necha yildan buyon bu davlatning folklor dastalari Samarqandda o'tkaziladigan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida muntazam ishtirok etib kelmoqda. Asrlar davomida islom merosini boyitgan, islom madaniyati va sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar yurti bo'lmish bu davlatga O'zbekiston Respublikasi hamisha ehtirom bilan qarab, do'stona aloqalarni mustahkamlashga katta e'tibor berib kelmoqda.

O'z-beginning mahallalari ko'rkam, obod, xushmanzara. Ayniqsa, yoz oylarida yanada sayzli ko'rinadi. Chinnidek supurilgan, suv sepilgan, bahavo. Qizib turgan yerga suv sepilganda, taraladigan tuproq hidini hech tuyganmisiz?.. Boshqalarni bilmadim-u, lekin men bu qadrdon hidni eng muattar atirlarning bo'yiga ham alishmayman...

KO'CHANGIZDAN MEHMON

O'IDDI...

Qulog'ingizga chalinganmi, odatda hovli va ko'chalarimizni insonlarning yuziga qiyoslashadi. Bolaligimizda hovlini supurib tozalasang, yer senga rahmat ayta-di, deraza-oyinalarini yuvib yaraq-latsang, o'zingning yuzing ham yaltillaydi, deya uqtirishardi. Darhaqiqat, ozoda va sarishta hovli, ko'chalar egasining nurli chehrasiga o'xshasa, qarovsiz, tartibsiz ko'chalarqi ko'rib, bu yerda qanday odamlar yashar ekan-a, deya o'ylanib qolasan kishi.

Bir maqolada o'qiganim bor, yurtimizga kelgan chet ellik mehmon o'zbek xonadonida mehmon bo'libdi. Barvaqt turib mahallalar bo'ylab yugurib, badantarbiya mashqlarini bajaribdi. Uyg'a qayt-gach, kechasi yomg'ir yog'ibdi, men sezmayman ham, debdi ajab-lanib mezbonglarga. Mehmon nazarda tutgan «yomg'ir» aslida yomg'ir emas, mahalla ahlining darvozalari atrofiga sepgan suvlari ekan...

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: hamma mahallalar ham birdek obodmi? Ko'rganlarim, kuzatgan-larim asosida shunday fikrga keldim:

afsuski, bu savolga ikkilanmay «ha» deya javob qaytarish mushkul.

Yaqinda nishonlaganimiz Hayit bayrami kunlarida yoshi ulug' qarindosh-urug'larimizni, nuroniy otaxon-u onaxonlarimizni ziyorat qildik. Shu asnoda ko'plab mahallalarda, ko'p qavatli uylarda bo'ldik. Shahrimizning Nozimaxonim, Qamarniso, Mirzag'olib mahallalaridagi ozoda, sarishta ko'chalarni kezib, ko'nglimiz

chiqindixonaning atrofi chinnidek qilib supurilgan, suv sepilgan, barq urib, yashnab turgan rayonlarning muattar bo'yi atrofini tutgan. Noxush hid u yoqda tursin, gulzor orasida chiqindixon borligini ham bilmaysiz. Tanishimizning ayti-shicha, bu uylarda yashovchilar tez-tez shanbaliklar uyushtirib, uylari atrofini tartibga keltirib turisharkan. Quvonarlisi, bunday tadbirlarga otanalarini farzandlarini ham jalb qilisharkan. Bunday ibratli uylar kundan-kun chiroy o'chib borayotgan poytaxtimiz chiroyiga

ravshan tortdi. Lekin Farobiy, Allon mahallasiga kiraverishdagi chiqindi qutilari atrofida sochilib yotgan chiqindilarga ko'zimiz tushib, biroz ranjidik. Sebzor mavzesida joylashgan ayrim ko'p-qavatli uylar atrofi-dagi noxush holatdan esa dilimiz xufton bo'ldi. 12-13 yoshlar atrofi-dagi qizaloqning chiqindilar uchun ajratilgan maxsus qutilar qolib, chiqindi solingan chelagini ularning atrofiga bo'shatib ketayotgani dard ustiga chipqon bo'ldi. «Dom»chilik shu ekan-da, deya hafsalamiz pir bo'lib, Zebo Shamsutdinova mavzesida yashovchi bir hamkasbi-mizning uyi tomon yo'ldik.

Bu yerda ham asosan ko'p-qavatli uylar joylash-gani uchun avvalgidek xunuk manzaraning guvohi bo'lsak kerak, deb o'ylagandik. Ishona-sizmi, butunlay aksincha holatga guvoh bo'ldik. Ko'p-qavatli uylar yonidagi

yarashqli holdek, aksincha, manzaralar esa dog'dek ko'rinadi.

Qarasang bog', qaramasang yurakka dog', degan naql bor dono xalqimizda. Keling azizlar, shunday jannatmakon diyorda yashash baxtiga muayassar bo'ldikmi, uning qadriga yetaylik, INSON degan sharafli nomimizga munosib yashaylik. Mahallalarimizni, shahar va qishloqlarimizni, ozod O'ZBE-KISTONIMIZNI obod qilaylik!

Feruza JALILOVA

Aziz o'g'il-qizlarim, qani, Siz ham hovli va ko'chalaringizga bir nazar tashlang-chi. Ko'changizdan mehmon o'tsa, unda qanday taassurot qolarkin? Hovlingiz sarishta, ko'chalaringiz obodmi? Mahallangiz bolalari-chi, odoblimi? Mehmon o'tsa, ularning gap-so'zlari, o'zlarini tutishlaridan uyatib qolmayisizmi?.. Shu mavzudagi maktublaringizni kutib qolamiz.





Matlabaonu TALLIBOYEVA,
Samarqand viloyati, Oqdarvo
tumanidagi
18-umumta'lim maktabining
7-«V» sinf o'quvchisi

YO'LBARS VA AYYOR MUSHUK

Aqlli itim Yo'lbars,
Qo'rqvni hech tan olmas.
«Shitir» etgan tovushni,
Sira anglamay qolmas.

Baroqvoy juda ayyor,
Momiq dumini tarar.
Taom tortilsa, tayyor,
Maqtanib itga qarar.



UMID

Nigoh tashlab kulib haq,
Misli yulduz oy yanaq.
Sen-la ko'z yonar porloq,
Samolarga qanot qoq.

Isming monand jisingga,
Bu tanish hisdir menga.
Qalbdan jo'shib qolasan,
Olisga yo'l olasan.

Sen-la sog'inch hamnafas,
G'amgin ko'zlar anglamas.
U yuraklar tanlamas,
Zarra uchqun bo'lsa, bas.

Umidim dilim yonib,
Nadomatlardan tonib.
Dovonlarga yetamiz,
Ko'ngilni shod etamiz.

Munisa
RAHIMBERDIYEVA,
O'zJTU qoshidagi
akademik
litsey o'quvchisi



Sizni sira ranjitgimiz yo'q,
Onamizsiz, Muyassar opa.
So'zlaringiz dilda misli cho'g',
Boshimizda bo'ling parvona.

Peshvoz chiqar beg'ubor damlar,
Siz tinglaysiz dil ohimizni.
Qalbdan ketar barcha alamlar,
Avf etsangiz gunohimizni.

Bizlarni tark etmadi yoshlik,
Qo'l ushlab yuribmiz shu on.
Siz ranjimang qilsak beboshlik,
Bizni tergap, qilmang imtihon.

Quyosh balqsin boshingiz uzra,
Nurga ko'mib izlaringizni.
Qanchalar sho'x, shaddod bo'lsak ham,
E'zozlaysiz qizlaringizni.

Zumrad ABDUQAHHOR qizi



Gulnoza
KARIMOVA,
O'zbekiston Milliy
universiteti talabasi

TO'RTLILIK

Quyosh onalarga o'xshaydi go'yo,
Xuddi farzandidek har bir sayyora.
Nurdan yuzlarini o'g'irgan mahal
Bo'lar hammasining yuzlari qora.



– Buvijon, yana ertak aytib berasiz-*a*, – deya bu oqshom ham Joniga-Husanlar buvijonisini holi joniga qo'yishmadi.

– Anu, oltin tayoqcha haqidagisi bor-ku, o'shani...

– Yo'q, chiroyli ko'za yasaydigan bola haqidagini aytib bering, – ukasining gapini bo'ldi Hasan.

– Albatta, aytib beraman, qani, yaxshilab o'tirib olinglar-*chi*, – deya buvijon ertak boshladi:

– Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning yolg'iz o'g'li bo'lib, u juda mehnatkash va aqlli bola ekan. Kunlardan bir kuni...

Qimmatni esa aksincha. Bu asarni o'qigan o'quvchi, albatta Zumradga o'xshashga harakat qiladi. Yillar davomida uning qalbida ezgu amallar, yaxshi xislatlar kurtak otib, shakllanib boradi. Yoki «Yigit kishiga yetmish hunar oz» ertagida Alijon ismli bolaga otasi oxirgi tillosini berib, shunday deydi:

– *O'g'lim, katta yigit bo'lib qolding, tirikligimda savdogarchilikning sirlarini o'rganib olsang. Mana senga yuz tillo, karvon bilan yo'lga tush. Faqat bu tillolarni aql bilan ishlatgin.*

Alijon biror hunar egallashni, o'z mehnati bilan kun ko'rishni istardi. Savdogarchilikni esa yotqirmasdi. Yo'l-yo'lakay otasi bergan oxirgi tilloni ham ilm olish,



o'quvchini boqimandalikka, tayoqcha ayyorlikka o'rgatib qo'yamaytimikan?

O'zbek xalq ertaklaridan «Kulsgul, yig'lasa dur»ni olaylik. Ertak yomon emas, ammo unda bir detal borki, o'quvchining e'tiborini jalb qilmay iloji yo'q. Unda hisob-kitobni bilmaydigan gadoyning bir zumda boyib ketishi haqida hikoya qilinadi. Farzandi yig'lasa, ko'z-

laridan yosh o'rniga durlar yog'iladi. Bunday go'zal durlar hatto podshohlarda ham kam uchraydi. Bu kabi tekin davlat bolaning fikrini chalg'itib, uni dangasa,

ishyoqmas qilib qo'yamaydimi?

Biz farzandlarimizni yoshlikdanoq mehnatga o'rgatamiz. Uzundan-uzoq nasihatlar qilamiz. Mehnat zavqi-yu, uning «shifokor»ligi haqida to'qinlanib so'ylaymiz. Insoniyatni voyaga yetkazgan, avvalo, mehnat ekanligini tushuntirishga harakat qilamiz. Shunday ekan, nima uchun hali oq-qoraning farqiga bormaydigan jajji yuraklarga tekin davlatni «ilinamiz».

Yuqorida buvijonlardan ertak tinglayotgan Hasan-Husanlar haqida bejiz to'xtalmadik. O'ylaymizki, bolajonlarimiz ko'proq Hasan kabi ibratli ertaklarni tinglasalar, foydadan holi bo'lmaydi. Ertak qahramonlari kabi aqlli, mehnatkash, bilimdon, hunarmand, qo'yingchi, komil inson bo'lib ulg'ayishga intilishadi.

Feruza SOYIBJON qizi

BIZ ERTAK O'QIYMIZ

yoki ertaklar xususida ayrim mulohazalar

Shu lahzada nafaqat bolajonlar, hatto katta yoshdagilar ham sirli va sehrli olamga tushib qolganek bo'ladi va bu olamdan faqat yaxshilarni, yaxshiliklarni izlaydi. Yaxshilik nur, yomonlik esa zulmat ekanligini ertak davomida tushunib boradi. Demak, ertak to'g'rilik va egrilikni, ezgulik va yovuzlikni ajratishda eng yaqin yordamchi vazifasini o'tar ekan. Shuningdek, buyuk tariximiz, donishmand xalqimiz hamda ma'naviy-madaniy qadriyatlarimiz bilan tanishadilar.

Barchamizga tanish bo'lgan «Zumrad va Qimmat» ertagidagi Zumradning mehnatsevarligi, shirinsozligi uni baxtga eltadi.



musiqi chalish, shaxmat o'rganishga sarflaydi. Oxir oqibat uning bilimdonligi, mehnatsevarligi bois boshqa yurt podshohlari ham unga o'z taxtini bo'shatib berishga tayyor bo'lishadi. Biroq, Alijon:

– *Mamlakat o'zingizning qo'lingizda gullab-yashnasin. Men esa o'z yurtimga qaytib, xalqimning savodini chiqarsam, musiqadan saboq bersam, – deb javob beradi va otasining huzuriga boy-badavlat yigit bo'lib qaytadi.*

Bu ertakni o'qigan bola qalbida shubhasizki, ilm olishga, hunar o'rganishga mehr tug'iladi. Alijondan ibrat olib, unga o'xshashga harakat qiladi. Hamma gap ana shunda!

Biroq, ayrim ertaklar xususida andak mulohazalarimiz bor. «Kuf-suf» desa, bas, hamma narsa muhayyo bo'ladi yoki sirli tayoqcha yordamga keladi. Asar qahramoni mehnat qilmay, bosh qotirmay boyib ketadi. Bu –



2010

Tong yulduzi
4-oktabr

O'zimizning taomlarni shunday sog'inishgan ekanki, ko'zlaridan yosh chiqib ketdi

Ish yuzasidan safarlarda ko'p bo'laman. Bir gal so'rayverib qo'ymagani uchun beshinchi sinfni bitirgan kenja o'g'limni ham o'zim bilan olib ketdim. Ishlarim bitgach, vodiyning go'zal joylarini ko'rsatdim. U bundan juda xursand bo'ldi. Poytaxtga qaytayotganimizda, g'alati ish bo'ldi. Toshkentga qatnaydigan yengil mashinaga o'tirdik. Mashina endi qo'zg'alaman ediki, bir kishi oldidan to'sib chiqdi. Qo'lidagi yelim xaltani ochib, bir dasta pulni haydovchiga uzatdi:

– Sizga ming rahmat, bir gal hojatimizni chiqargan edingiz. Xizmatigingizga rozi bo'ling. Kamiga biz qarzdormiz.

U haydovchining e'tiroziga qaramay pulni majburan tutqazganicha jo'nab ketdi. Biz ham yo'lga tushdik.

– Haligi yigitning ishiga hayron bo'layotgandirsiz?
– dedi haydovchi menga qarab. – Agar istasangiz,

DADA,

KETIB

tafsilotini gapirib beraman.

Buyam bir ibrat.

Menga ham bu taklif ma'qul tushdi.

– Yo'lda yurgan odam

ko'p voqealarning guvohi bo'larkan, – dedi hamrohimiz yo'ldan ko'z uzmay. Ammo hammasini ham eslab qololmaysan kishi. Boyagi yigit o'zini tanishtirmasa, bu voqeani balki eslamasdim ham.

O'tgan yili bahorda mijoz olish uchun shimoliy vokzalga chiqdim. O'shanda u yigit uch o'rtog'ini bilan uylariga olib borib qo'yishimni so'radi. Pullari yo'qligi bois, kira haqini manzilga yetgach berishlarini aytishdi. Men rozi bo'ldim. Yigitlar juda abgor, qattiq toliqqanlari ko'rinib turardi. Orqada o'tirganlari biroz yurmasimdanoq pinakka ketishdi. Boyagi yigit yonimda o'tirgan edi. Gurunglashib ketdik. Ma'lum bo'lishicha, bir odam ularga katta maosh va'da qilib, noqonuniy yo'l bilan xorijga olib ketibdi. U yerda esa aldab, hujjatlarini olib qo'yibdi. O'zlarini boshqa birovga topshirib, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Na oshovqati, na yotar joyining tayini yo'q yigitlar uch oy tekinga ishlab, zo'rg'a hujjatlarini qaytarib olishibdi. Keyin esa odamlarning uyida arzimagan ish haqiga

duch kelgan ishni qilib, yurtga qaytish uchun pul yig'ishibdi. Ochig'i, qo'lida gulday hunari bo'lgan bu yigitlar tortgan azoblarni eshitib, rahmim keldi. Yo'l olis, yo'q deyiqlariga qaramay, yo'lda ovqatlantirdim. O'zimizning taomlarni shunday sog'inishgan ekanki, ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Kamiga qo'llariga ikkitadan patir ham olib berdim. Uzoq muddat chetda yurgan odam bola-chaqasining oldiga quruq qo'l bilan kirib borishi ham xunuk-da.

– Ularni aldagan odamni topishganmikan? – dedim azbaroyi qiziqqanimdan.

– Bunisini bilmadim. Ammo odamlarning o'zida ham ayb bor. Birov og'iz ko'pirtirib maqtasa, laqqa ishonib ketishaverishadi. Xo'p, shunday yaxshi pul



QOLMAYSIZMI?

to'laydigan joy bor ekan, aka-ukang, bolalaringni olib borib, o'zing ishlay qolmaysanmi, deb so'raydigan odam yo'q. «Tekin pishloq qopqonda bo'ladi», degan gapni unutmashlik kerak...

Haydovchi haq edi.

Gap bilan bo'lib, manzilga yetib kelganimizni ham sezmay qolibmiz. Mashinadan tushib, xayr-xushlashdik. Uyimiz tomon borar ekanmiz, qo'lmdan ushlab olgan o'g'limning panjalari barmoqlarimni yanada mahkamroq siqayotganini sezdim.

– Ha, o'g'lim?..

– Siz boshqa yurtlarga ishga bormaysiz-a? Doimo yonimda bo'lasiz-a? – dedi o'g'lim ko'zlarini javdiratib.

Uning ko'zlari shunday mehrlri, samimiy boqardiki, bu nigohlarni hech narsaga almashtirib bo'lmashligini ich-ichimdan his etdim.

Yusuf ABDULLAYEV



Asad DILMUROD

«Apachlar» filmi Urgutda olingan

Doim jiddiy qiyofada xayol surib turadigan, bag'rida ne-ne sir-u sinoatni yashirgan salobatli Teshiktosh, ehtimol, sizni ham necha martalab qarshi olgandir. Tiriklik murabbiysi bo'lmish ona tabiat bu g'aroyib haykalni, bor mehr-u muhabbatini berib, mohirlik bilan yaratgan va u o'ziga xos manguilik timsoliga o'xshaydi. Jurnalistlar e'tiborini tortib, ancha ilgari «Guliston» va «Ogonyok» jurnallarida surati bosildi. Keyinroq yon-atrofida, dilni rom etadigan qir-u adirlar bag'rida, nemis kinochilari ma'lum va mashhur Goyko Mitich qatnashgan «Apachlar» badiiy filmi tasvirga tushirdi va o'sha ekran asari butun dunyoni aylanib chiqdi.

Teshiktoshni alohida eslayotganim bejiz emas. Bir vaqtlar, maktab o'quvchisi bo'lgan

Aziz bolajonlar!

Taniqli yozuvchi Asad Dilmurod yurtimizdagi ko'zga ko'ringan ijodkorlardan. U kishi ko'plab tarixiy asarlar muallifi. Kuni kecha ustoz Urgut tumanida o'tgan bolalik xotiralari haqidagi esdaliklarini bizga taqdim etdilar. Asar bizga ma'qul bo'ldi. Shu bois, uni sizga ham ilindik.

Yozuvchi esdaliklari

BO'SAG'A

va yalangoyq yalangto'sh qishloq ko'chalarini changitib yurgan kezarimizda issig'-u sovuq, yelvizag-u bo'ronni nazar-pisand qilmas ushbu mahobatli o'lmas obida oshiqqlari edik.

Qizig'i, Teshiktosh yolg'iz emas, ilang-bilang so'qmoqlar bo'ylab sal-pal ichkariroqqa kirsangiz, Tosh kelinchak, Tosh burgut, Tosh qo'chqor, Tosh qurbaqa kabi haybat-qiyofa va joziba bobida biri-biridan o'zadigan g'alati haykallarga duch kelasiz.

Endi bir simi ochsam bo'ladi: o'sha alamat haykallar orasida kamina Tosh burgutni ko'proq yoqtirar edim, ochig'i, do'stlarimdan uni o'lib-tirilib qizg'anardim va u faqat o'zimmiki bo'lishini istardim. Nima uchun shunday muddaoga yopishib olganim sababini hali-hali tushunmayman.

Tosh burgut sadoqat bobida tengsiz qadrdon do'stim, hamdardim va sirdoshim edi, noyob orzu-umidlar ma'budasiday yuragim to'riga o'rnatilib qolgandi. Mudom romantik o'y-fikrlarga ko'milib yuradigan odatim bo'lgani sababli, u bilan ba'zan yuzma-yuz, ba'zan xayolan allanarsalar (masalan, kattalar hadeb huda-behuda kichiklar jig'iga tegaverishi) ustida ukasi bilan tortishayotgan akadek tortishardim. Tosh burgut butun vujudi bilan so'zlarimni tinglayotgani – o'zim kabi goh quvonib, goh qayg'urayotgani, eng muhimi, bir kunmas-bir kun ulkan qanotlarini yozgancha lojuvard osmon-u falak sari parvoz qilishiga ishonardim.

Ajabki, keyin ham shu fikrdan ajrala olmadim, universitetni bitirib-bitirmay, dilimni band qilgan ajib kechinma va mushohadalar ifodasi bo'lgan «Tosh burgut» qissasini yozdim, so'ngroq, Moskvadagi «Molodaya gvardiya» nashriyotida (1987) shu nomdagi kitobim bosildi.

Mana, umr daryodek oqib o'tdi, hamma narsaga qiziqadigan, hamma narsadan hayratlanadigan beg'ubor, quvnoq, yerga ursa ko'kka sapchiydigan bolaligim va o'smirligim ortda qoldi. Endi o'sha fasl hech qachon ushalmas armonimga aylandi, faqat, iymonim komilki, u dilimga joylagan tabiat mehri umrim oxiriga qadar so'nmasa kerak.

(Davomi bor)

(Boshi o'tgan sonlarda)

3. YARASH-YARASH

Oddiy yoz kunlaridan biri. Daryo bo'yi. Jon Jo'ra katta toshga oyoq qo'yib, qirg'oqqa, issiq qumga chiqib, o'zini tappa yerga tashladi. Dirdiragan badanlariga issiq o'tib, «oh-oh» deganicha issiq qumni ikki qo'llab bag'riga tortdi.

O'rtoqlari Homid bilan Sattor bir-birlariga suv sepishib qiyqirishar, qolgan bolalar ham ularga qo'shilib, keng darani boshlariga ko'tarishardi.

Jon Jo'ra issiq qumga yelkasini bosdi. Yelkalari jiz etib kuydi. Kuygani ma'qul, qishda shamollamaydi. Tepada tip-tiniq osmon. Qanchalik moviy. Moviy rangga havasi keldi. Bunaqa rangni yerda topolmayasan.

Yon tomondan oyoq tovushi eshitilib, o'g'irilib qaragan edi. Botirning ishsheyib turganini ko'rib, jahli chiqdi.

Botirning ko'zlari yulduzdek porlar, qora kipriklari yog'surtilgandek yaltirar, bo'yin terisi ham oppoq ediki, uning bu holati xursandligini, nimadandir shodlanganini bildirardi.

– Yaxshimisan, Jon Jo'ra? – deb so'radi miyig'ida kulganicha.

Jon Jo'ra unga teskari o'g'irilib:

– Sen kimsan o'zi? – dedi achchiq bilan.

– Menmi? Men yetimman! – javob qildi

Botir bu safar yoqimli jilmayib. Negadir bu safar ko'zlari kulmadi.

– Bu yerlarda nima qilib yuribsan?

– Yaxshi do'st qidirib yuribman.

– Yaxshi do'st topolmayapsanmi?

– Yo'q, topolmayapman.

– E-e, hali men senga do'st emasdim?! – bug'riqdi Jon Jo'ra.

Botir bu safar ayyorona kuldi:

– Seni do'st deb bilgan edim, o'zing yuzingni teskari o'g'irypasan-ku!

– Sen kelding-u, men ikkinchiga aylandim.

– Gap bu yoqda de! Shunga xafa bo'lyapsanmi?

– Boshqa nima bo'lardi!

– Sen yaxshi bola ekansan. O'rtoqlaring seni juda hurmat qilarkan.

Jon Jo'raga bu gap moyday yoqib, sal kekkaydi:

– To'g'ri, o'rtoqlarim meni hurmat qilishadi. Men ham ularni hurmat qilaman, – Jon Jo'ra uning oqargan lablariga qarab, rosa ochiqqan bo'lsa kerak, deya o'ylab, rahmi keldi. – Qorning ham och bo'lsa kerak?

Botir boshini sarak-sarak qildi:

– Yo'q, unchalik och emasman.

Jon Jo'ra uning qayoqqa ketayotgani bilan qiziqdi:

– Yo'l bo'lsin?

– Seni qidirib keldim.

– Bu yerdaligimni qayerdan bilding?!

Botir yana ayyorona kularkan:

– Do'st bo'lganimdan keyin bilaman-da, – deya yolg'on gapirdi va Jon Jo'raga nafrat bilan boqdi. Odamning bolasi ham ayyor bo'ladi. Ularni yolg'on



gap bilan aldab turish kerak.

Jon Jo'ra unga yana achinib qaradi:

– Agar kechirim so'rash uchun qidirib kelgan bo'lsang, xursandman...

Botir uning rahmini keltirish uchun bo'ynini egib, burnini tortdi.

– Seni xafa qilganim uchun kechir meni. Endi sira xafa qilmayman.

Jon Jo'raning yuragi yozildi:

– Chin so'zingmi?

– Chin so'zim.

Jon Jo'ra yelkasidagi qumlarni to'kib, oyoqlarini uzatib o'tirdi:

– Menga ayt-chi, nega sen kelgandan so'ng qoloq o'quvchiga aylanib qoldim?

Botir yana yolg'on gapirdi:

Yangi asardan parcha

– Bunga aqlim yetmaydi, lekin miyanga bir gap bo'lganga o'xshaydi, do'xtirga ko'rsat, davosini ayta!

Jon Jo'ra uning aqliga qoyil qoldi: nega shu haqda o'ylamadi? Gapi to'g'ri: do'xtirga uchrasa, bir zumda esini joyiga kiritib qo'yadi. Hoziroq qishloq do'xtiriga uchraydi. U o'rnidan sakrab turdi:

– Do'xtir tuzatoladimi, sen nima deysan?!

– Tuzatadi, ishonaman ularga.

– Yana a'lochi o'quvchi bo'lamanmi?

Botir turgan joyida chiyraldi: inson bolasi o'zini buncha yaxshi ko'rmasa! Bir safar ortga chekinishga to'g'ri keladi.

– Bo'lasan! – dedi u zo'rg'a. Endi u Jon Jo'raga yordam bermasa bo'lmaydi. Bir gal iltimosini bajarsa, osmon uzilib yerga tusharmidi?!

Tepadan unga dahshatli ovoz keldi: «Hov qanotli bola, o'zingdan ketma!»

Jon Jo'ra o'zini daryoga otdi, boshini, yelkalarini, qo'llarini, qornini yaxshilab yuvdi-da, so'ng yulg'inzor orasiga kirib, nimcha, ishtonini siqib qoqdi va zumda kiyinib, yo'lga tushdi:

– Qani, ketdik, do'xtirga boramiz!


Botirning yuzi burishdi. O'zi yo'l ko'rsatib, o'zi baloga qoldi. Endi o'zi do'xtirlik qiladi unga. Do'xtir huzurida ham rosa hangama bo'lsa kerak...

T.HAYIT

AZIZ BOLALAR!
«SUPERYOLG'ONCHI yoki QANOTLI BOLA» ASARI BILAN TANISHDINGIZ. VOQEALAR BUNDAN KEYIN YANADA QIZIQARLI DAVOM ETADI. BU IKKI BOLA JUDA KO'P EZGU ISHLARNI AMALGA OSHIRIB, HAMMANING HURMATIGA SAZOVOR BO'LADI. ASARNING DAVOMIGA QIZIQSANGIZ, UNING KITOB HOLIDA CHIQUISHINI KUTING!

Aziz o'quvchilar, kuzatib borayotgan bo'lsangiz, tahririyatimizda taniqli jurnalistlar, bolalar yozuvchilari va shoirlari, adabiyotshunoslar, ustoz va murabbiylar bilan davra suhbatlari uyushtirish, uchrashuvlar o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylanib qoldi. Kuni kecha taniqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Umarali NORMATOV bilan bo'lgan uchrashuvimiz ham juda maroqli o'tdi.

Tahririyatimizga kelgan ijodkorlar bilan suhbatimiz davomida aksariyatining «Tong yulduzi» bilan bog'liq xotiralari borligi ma'lum bo'ladi: qay birlari ish faoliyatini mana shu qutlug' dargohda boshlagan bo'lsalar, boshqalarining ilk ijod namunalari shu nashrda chop etilgan chiqadi.



TANQID - SARALAMOQ DEMAK



– Bu gazeta men uchun ham juda qadrdon, – deya mamuniyat bilan so'z boshladilar Umarali aka. – G'ani Jahongirov Bosh muharrirlik qilgan yillari ikki yil shu dargohda mehnat qildim. Talaba edik, tahririyatga kuniga keladigan yigirma-o'ttiztalab xatlarga javob yozardik. Ajoyib davrlar edi-da...

Aytaylik, uyingizga mehmon keldi. Uni zeriktirib qo'ymaslik uchun qanday mavzuda suhbat qurasiz? Albatta, uning kasbi-kori doirasida, shunday emasmi?! Bizning suhbatimiz ham shunday boshlandi. Bosh muharririmiz To'lqin Hayitning Umarali akaga bergan tanqidiy nuqtayi nazardagi birinchi savoli quyidagicha bo'ldi:

– Umarali aka, bizga yaxshi ma'lumki, jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham taniqli adiblar ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bolalar uchun ham yaxshi-yaxshi asarlar yaratishganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Lev Tolstoyning bolalarbop asarlari, G'afur G'ulomning «Shum bola»si... Bugungi kunda taniqli adiblarimiz bu ajoyib an'anani davom ettirishmayotgandek, nazarimizda.

– To'lqinjon, meni ham anchadan buyon o'ylantirib kelayotgan eng og'riqli savolni berdingiz. O'zimiz ham Abdulla Qahhorning «Jinlar bazmi», «Uloqda», G'afur G'ulomning «Shum bola» asarlarini o'qib ulg'ayganmiz. Bu asarlar hozir ham o'z qadrini, mohiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, Turgenevning «Mu mu'ssi murg'ak qalbimni alg'ov-dalg'ov qilib yuborgan.

Taniqli yozuvchimiz Asqad Mux-torni ana shu an'anani davom ettirgan adiblar sirasiga kiritish mumkin. U bolajonlarga bag'ishlab «Dunyo bolalari» asarini yozgan. Lekin keyingi paytlarda taniqli adiblarimiz ijodida bu narsa kuzatilmayapti. Ayrim nashriyot-larning yillik rejalarini bilan tanishish jarayonida shunga amin bo'ldimki, bir yilda olti roman chop etishni rejalah-

tirishgan, lekin ular orasida birorta ham bolalar uchun yozilganlarini ko'rmadim. Nazmda yaxshi asarlar taylagina, nasrda oqsalyapti. Bu holga toqat qilib bo'lmaydi. Sizlar bong uringlar! Joiz bo'lsa, yozuvchilar orasida «Eng yaxshi bolalar asarlari» tanlovini e'lon qilinglar...

Yusufbek ABDULLAYEV, ma'naviyat bo'limi muharriri:

– Umarali aka, menimcha, bugungi kunda adabiy tanqidchilik biroz susayib qolgandek. Avvallari matbuotda birorta yaxshi asar chiqdimi, ketidan albatta Abdug'afur Rasulov, Ibrohim G'afurov, Matyoqub Qo'shjonov kabi adabiyotshunoslarimizning taqrizlarini o'qirdik. Hozir yaxshi asarlar yo'qmi yoki tanqidchilar ozmi?..

– Hozir ham juda ko'p yaxshi asarlar yaratilyapti. Lekin ular o'z bahosini ololmayotgani, e'tibordan chetda qolib ketayotgani ham haqiqat. Zero, achchiq tanqidning mevasi shirin bo'ladi. Behbudiy «Tanqid bu saralamoqdir» deb yozganida, nechog'li haq edi. Vaholanki, Shuhrat Rizayev, Rahmon Qo'chqor kabi yaxshi tanqidchilarimiz ham yo'q emas.

Yaqinda Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub «Ayol» nomli yaxshi bir qissa o'qidim. Matbuotni kuzatib bordim, unga ham hech qanday munosabat bildirilmadi. Afsuski, Ozod Sharofiddinovdagidek fidoyilikni hech bir hamkasbimda ko'rmayapman...

Gulyuz Orifjonova, bo'lim muharriri:

– Zamonamiz qahramonlarini qanday tasavvur qilasiz?

– Bugungi kunda biz ijodkorlar oldiga zamonamiz qahramonlari obrazini yaratish vazifasi qo'yilyapti.

Yaqinda Farg'ona viloyatining chekka bir qishlog'ida bo'ldim. U yerdagi obod mahallalarni, ko'rkam, shinam uylarni, guzarlarni ko'rib, ko'zim quvnadi. Bilimga chanqoq, izlanuvchan, intiluvchan o'g'il-qizlarning yurish-turishlarini aytmysizmi?! Ayniqsa, gimnastikachi qizlarning mahorati hayratimni oshirdi. Mana shu yoshlar emasmi zamonamiz

qahramonlari?! Yurtimizning har go'shasini obod qilayotgan insonlar emasmi zamonamiz qahramonlari?! 19 yil ichidagi ijobiy o'zgarishlar yozuvchilarimizning qalbida, yuragida, ongi-shuurida, qalamida aks etishi lozim. Hujjatli asarlar yaratilsa, nur ustiga a'lo nur.

Feruza JALILOVA, Bosh muharrir o'rinbosari:

– Ardoqli adibimiz Umarali Normatovning bolaligi qanday kechgan?

– Yodimda bor, Qo'qon madrasasida tahsil olgan dadamizning juda ko'p kitoblari bo'lardi. Ularning ko'pchiligini o'qib chiqqanman. Arab yozuvidagi «O'tkan kunlar» romanini ham maroq bilan o'qiganman. «Yoritosh»,

«Kavkaz asiri» kabi asarlarni o'rtoqlarim bilan qayta-qayta o'qishdan zerikmasdik. Juda ko'p yozuvchilarning asarlarini o'qidim. Lekin Abdulla Qahhordek buyuk yozuvchini topganim yo'q.

Orzularimga kelsak, esimni taniganimdan buyon, filolog bo'laman, deya niyat qilardim.

– Bugunning bolasi kitobdan ko'ra kompyuterni afzal biladi, degan fikrga qanday qaraysiz?

– Nabiralarimdan bilaman, aksariyat vaqtlari XX asr mo'jizasi deya ta'riflanayotgan kompyuterlar qarshisida o'tadi. Bu holga ma'lum ma'noda biz ham aybdormiz, deb o'ylayman. Ana shu kompyuterlardan ustun adabiyotlar chop ettirib, bolalarimizni kitobxonlikka chaqiraylik.



Suhbatimiz yakunida esdalik uchun suratga tushdik

So'nggi so'z o'rnida

– Bugungi yoshlarga juda havasim keladi. Biz 1944-yilda vaziyat taqozosiga ko'ra, 12-13 yoshli chog'imizdanoq front orti brigadasida mehnat qilganmiz. Dalalarda yotib qolinardi. Shunday bo'lsa-da, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqimiz so'nmagan. Hozir esa farzandlarimiz uchun barcha imkoniyatlar bisyor. Ulardan g'ayrat, shijoat, fidoyilik talab qilinadi, xolos.

Yoshlarimizni mutaassiblikdan ehtiyot qilaylik.

– Maroqli suhbatimiz uchun tashakkur. Yaqin orada bugungi bolalar adabiyoti xususida Siz bilan yana bir suhbat qurishga umid qilamiz.

O'ZINGNI SINAB
KO'R!


1. 60 50 40 30 20 10
Shu sonlar orasida + yoki -
ishoralarini shunday tartibda
qo'yingki, natijada 70
chiqsin.

2. To'rtta shunday
sonlarni topingki, ularning
ketma-ket ko'paytmasi 70
chiqsin.
 $41+29=54+x$

3. 1. K. L 2. Q. I
Shu ikkita so'zning tushurib
qoldirilgan 2 harflari o'rniga
unli harflardan mos
keladiganlarini qo'yib, qaysi
biri bilan ko'proq so'z hosil
qilish mumkin?

OVCHIDA NECHTA QUSH
QOLDI?

4. Hasan ota ovga chiqib, kichik
daradan 4 ta kaklik tutib oldi. Yo'lda
singlisinikiga kirib, tushlik qildi va ularga 2 ta
kaklikni qoldirdi. Katta daraga kelib, 10 ta tustovuq,
8 ta bedana, 8 ta quyon tutib oldi. Unda nechta
kaklik, nechta tustovuq va nechta quyon
qoldi?



Diqqat:

yangi rukn:

SAYOHAT

Siz sayohatni yaxshi ko'rasiz.
Sayohat ham ilmni talab qiladi.
Shunday ekan, keling, hozircha siz
dunyo bog'lari, inshootlari bilan
tanishib boring.

LOLA PARKI

Shahar markazining shimoliy
qismida, so'lim Keshovarz xiy-
boni yonida joylashgan. Bu bog'
Tehronning katta saylgohlaridan
biridir. Bog' bilan birga zamo-
naviy san'at muzeyi, gilamlar
muzeyi, Bolalar badiiy ijodiyot
markazi, shuningdek, «Sipoh» va
«Ettika» bolalar teatri mavjud.
Ushbu barcha inshootlar Lola
bog'iga o'ziga xos go'zallik
baxsh etadi.

ERAM BOG'I


Tehron shahri chekkasida,
Tehron-Karaj avtotrassasi
chorrahasida joylashgan bo'-
lib, katta maydonga egadir.
Unda suv o'yinlariga mo'ljal-
langan katta ko'l mavjud.
Bog'da bolalar va o'smirlar
uchun ko'plab charxpalak
o'yin maydonchalari qurilgan.
Ular orasida havo tog'lari,
boshqotirma charxpalagi, avto-
poygalar va boshqalarni aytish
mumkin. Horraq chiqaruvchilar
odatda o'zlari bilan yegulik olib
kelishadi. Parkning chetida,
shundoq o't-o'lanlar ustida
odamlar o'z gilamlarini yoyib,
ovqatlanishlari va choy ichish-
lari mumkin.

FAYZLI
MAKTAB

Poytaxtimizning Yakkasaroy
tumanidagi 172-umumta'lim
maktabi ham fayzi, tartibli bilan
boshqalardan ajralib turadi. Bu
yerdagi xonaki hamda rang-barang
tabiiy gullarni ko'rib, kishining
ko'zi quvnaidi. Maktab rahbari
Kamolaxon Abduvohidova ustozlar
haqida shunday dedi:

– O'quvchilarimizning ustozlar
borasida omadlari chopgan. Jumladan,
boshlang'ich sinf o'qituvchisi Sayyora
Rahimova, Malohat Qodirovalar o'z
kasbini jon-dildan sevishadi, bolajonlarga
ham juda mehribonlar. Matematika
o'qituvchisi Jamshidbek Rahmatovning
nomini esa alohida e'tirof etishni istardim.
Sir emaski, ko'pgina o'quvchilar
matematika fanini unchalik xush
ko'rishmaydi. Lekin Jamshidbekning
saboqlarini bolalar jon-qulog'i bilan
tinglaydilar. Chunki u darslarni juda
qiziqarli tarzda misollar yordamida
osongina tushuntirib beradi. Geografiya
fani o'qituvchisi Halima Madazimova
ham tajribali, bilimli, mehribon ustoz
sifatida hurmatga sazovor...

M.UBAYDULLAYEVA

FARZANDIMDEK YAXSHI
KO'RAMAN

Yo'limiz tushib, Sergeli tumanidagi 32-maktabga borgandik.
Maktab hovlisidagi jimjiltlikni ko'rib, hayron bo'ldik.

– Bizda tartib shunaqa, – dedi maktab
jonkuyar direktori Mavluda Madami-
nova. –720 dan ziyod o'quvchi ilm
oladigan bilim maskanimiz tumandagi eng
namunal o'quv dargohlaridan biri desam,
mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchilarim
tartib-intizomli, tozalikka qattiq rioya
qilishadi. Shuning uchun ularni o'z
farzandlarimdek yaxshi ko'raman.
Naima Rashidova, Surayyo Mahmud-
dova kabi fidoyi, jonkuyar o'qituvchilar
o'z bilim va malakalarini bolajonlardan

ayashmaydi. Turli tanlovlarda qatnashib,
maktabimiz sha'nini ko'klarga ko'tara-
digan o'quvchilarimiz ham talaygina.
Shahar miqyosida o'tkazilgan «O'z-
bekiston – Vatanim manim» qo'shiqlar
ko'rik-tanlovida xushovoz o'quvchimiz
Saidjon Rajabov I-o'rinni qo'lga kiritib,
ko'nglimizni tog'dek ko'tardi.
Kuni kecha shanbalik uyushtirdik.
Maktabimiz atrofidagi ko'chalarni
supurib tozalayotganimizda, bizni
otaxonlar duo qilishdi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOVGazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVAManzilibiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tongyulduzi@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 33324
Buyurtma N: J 201

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Oloyuddin
ORIPOV
Navbatchilar:
Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV